

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA STARTAP
LOYIHALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY-
IQTISODIY AHAMIYATI**

Ergashov Sherzod Abduxoliq o‘g‘li

Toshkent Menejment va Zamonaviy texnologiyalar universiteti,

Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

[@SherzodErgashov0109](#)

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan texnologik o‘zgarishlar biznes jarayonlariga tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli transformatsiya shunchaki texnik yangilanish emas, balki iqtisodiyotni boshqarish, ishlab chiqarishni optimallashtirish, marketingni avtomatlashtirish va startaplar uchun mutlaqo yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiruvchi strategik jarayondir.

O‘zbekiston ham mazkur sohada faol islohotlarni amalga oshirmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, IT Park, Innovatsion rivojlanish agentligi, Yoshlar texnoparki kabi tashabbuslar startap ekotizimining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu tezisning maqsadi - raqamli texnologiyalar asosida startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlashning nazariy, amaliy va tashkiliy ahamiyatini tahlil qilishdan iboratdir.

Raqamli texnologiyalar - bu raqamli ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish imkonini beruvchi texnik, dasturiy va kommunikatsion tizimlar majmuasi hisoblanadi. Bular quyidagilarni ya’ni *bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar analitikasi, blokcheyn, IoT* va *AR/VR* texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

Startaplar uchun raqamli texnologiyalarning asosiy ustunliklari sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin: Minimal funksiyaga ega mahsulotni tez yaratish; Xarajatlarni kamaytirish; Big Data orqali bozorni chuqur o‘rganish; Jadal raqobat ustunligi; Jahon bozoriga kirishning osonlashuvi.

Xususan, O‘zbekistonda IT Park, akseleratsiya dasturlari, texnoparklar, davlat grantlari orqali startaplar qo‘llab-quvvatlanmoqda natijada IT eksporti so‘nggi yillarda bir necha barobar oshdi, minglab startaplar akseleratsiyadan o‘tdi, biroq yuqori texnologiyali startaplar ulushi pastligicha qolmoqda. Shunga qaramay, quyidagi muammolar ham mavjud:

Venchur investitsiyalar yetishmasligi

Tajribali mentorlar va ekspertlar kamligi

Startap madaniyatining pastligi

Infratuzilma cheklovlari

Huquqiy tartiblarning to‘liq shakllanmaganligi

1-rasm. Yuqori texnologiyali startaplarni rivojlantirishda uchraydigan muammolar¹

Bugungi kunga kelib O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining raqamli texnologiyalarga moslashuvi bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali”, “my.soliq.uz”, “online.mf.uz” kabi elektron tizimlar tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirdi. Shu bilan birga, “Uzum Market”, “ZoodMall”, “Glotr.uz”, “Asaxiy.uz” kabi mahalliy e-commerce platformalari kichik bizneslar uchun onlayn savdo imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Raqamli transformatsiyaning aralashuvi kichik biznes uchun nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki raqobatbardoshlikni ham ta’minlaydi. Masalan,

[¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan]

2024-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, raqamli platformalardan faol foydalanuvchi kichik korxonalar o'rtacha 25–30% yuqori daromadga ega bo'lgan. Biroq bu natijalar barcha tarmoqlar uchun bir xil emas: xizmatlar sohasi raqamli yechimlarga tezroq moslashgan bo'lsa, ishlab chiqarish segmentida bu jarayon sekinroq kechmoqda.

O'zbekiston–2030 strategiyasida raqamli iqtisodiyot milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, unda: “Raqamli biznes ekotizimini rivojlantirish”; “Elektron savdo va moliyaviy xizmatlarni kengaytirish”; “Texnoparklar va startaplarni qo'llab-quvvatlash”; “Internet infratuzilmasini 100 foiz aholiga yetkazish” kabi vazifalar belgilangan.

Raqamli texnologiyalar startaplar rivojining asosiy drayveri bo'lib, iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va eksportni ko'paytiradi. O'zbekistonda mazkur jarayon jadallashgan bo'lsa-da, venchur bozorini rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish hali ham ustuvor vazifalardan biri hisoblanib kelinmoqda.

Xulosa

Ushbu tezisdan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar startap loyihalarini rivojlantirishning asosiy drayveri hisoblanadi. Ular biznes jarayonlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, marketing va mijozlar bilan ishlashni avtomatlashtirish, shuningdek yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda IT Park, texnoparklar, akselerator dasturlari va davlat grantlari kabi qo'llab-quvvatlash mexanizmlari startap ekotizimining shakllanishiga yordam bermoqda.

Shu bilan birga, startaplarni rivojlantirish jarayonida quyidagi muammolar hali ham dolzarb hisoblanadi: venchur investitsiyalar yetishmasligi, tajribali mentorlar va ekspertlar kamligi, startap madaniyatining

pastligi, infratuzilma cheklovlari va huquqiy tartiblarning to'liq shakllanmaganligi. Kichik biznes subyektlarining raqamli platformalarga moslashuvi bosqichma-bosqich amalga oshmoqda, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar asosida startaplarni qo'llab-quvvatlash - O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va innovatsion salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Toshkent.
2. IT Park rasmiy sayti. (2023). IT Park haqida ma'lumot. Toshkent.
3. Innovatsion rivojlanish agentligi. (2023). Startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hisobot. Toshkent.
4. World Bank. (2022). Digital Economy in Central Asia. Washington, DC: World Bank.
5. OECD. (2021). Startup Ecosystems and Digital Technologies. Paris: OECD Publishing.
6. Global Entrepreneurship Monitor (GEM) Report. (2023). Entrepreneurship in Uzbekistan. London: GEM.
7. Fintech & E-commerce Reports Uzbekistan. (2024). E-commerce and Digital Business Development in Uzbekistan. Toshkent: FBRU.